



TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA
BOSHQARMASI

TOSHKENT SHAHRIDA XIZMATLAR SOHASINING RIVOJLANISHI

2023-YIL YANVAR-SENTABR



Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasi bu — korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtirilgan toifadir. Bu mamlakatning savdo, professional va maishiy xizmatlar ko'rsatishga ixtisoslashgan iqtisodiy tarmog'idir.

2023-yilning 1-oktabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

**77 568
birlik**



Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

79,9 %



Xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlarning ulushi

113,1 %



O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati


2023-yilning 1-oktabr holatiga ko'ra, Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni **97 057** birlikni tashkil etdi. Xizmatlar sohasida **77 568** birlik korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqda, bu ularning umumiy sonining **79,9 %** ni tashkil etdi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **113,1 %** ni tashkil etgan.

Xizmatlar – iste'molchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) holatini o'zgartiradigan yoki tovarlar, xizmatlar va moliyaviy aktivlar bilan ayirboshlashiga ko'maklashadigan ishlab chiqarish faoliyatining natijasi hisoblanadi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi ma'lum vaqt davomida iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslar, norezidentlarni qo'shgan holda) ko'rsatilgan xizmatlar qiymatini aks ettiradi.

Toshkent shahar bo'yicha xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi


(yanvar-sentabr oylarida) ¹⁾



Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, **2023-yilning yanvar-sentabr oylarida** bozor xizmatlari hajmi **132 916,7** mlrd. so'mga yetdi. **2022-yilning yanvar-sentabr oylariga** (**116,8** %) nisbatan o'sish sur'ati **116,8** % ni tashkil etgan.

¹⁾ Bu va bundan keyingi ko'rsatkichlar metodologiyaga muvofiq har keyingi yil qayta ko'rib chiqiladi


Tumanlar kesimida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2023- yil yanvar-sentabr oylarida)

	Hajmi, mlrd. so'mda	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Toshkent shahar	132 916,7	100,0	116,8
Uchtepa	7 395,9	5,6	110,9
Bektemir	4 642,4	3,5	114,1
Yunusobod	21 205,2	16,0	121,6
Mirzo Ulug'bek	13 318,3	10,0	122,1
Mirobod	14 378,5	10,8	110,2
Shayxontohur	14 766,7	11,1	119,5
Olmazor	10 851,3	8,2	114,0
Sergeli	6 877,6	5,2	122,6
Yakkasaroy	11 519,9	8,7	114,3
Yashnobod	11 520,7	8,7	117,0
Yangihayot	2 113,2	1,6	117,2
Chilonzor	14 326,9	10,8	115,3

¹⁾ tumanlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

(yanvar-sentabr oyida)



2019-y. 2020-y. 2021-y. 2022-y. 2023-y.

■ Hajmi, ming so'mda ● O'sish sur'ati, % da

2023-yilning yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **44 477,6** ming. so'mga yetdi. **2022-yil yanvar-sentabr oylariga** nisbatan o'sish sur'ati **113,3 %** ni tashkil etgan.


Tumanlar kesimida aholi jon boshiga xizmatlar

(2023-yil yanvar-sentabr oylarida)

	Hajmi, ming. so'mda	O'sish sur'ati, % da
Toshkent shahar	44 477,6	113,3
Uchtepa	24 994,7	108,2
Bektemir	80 877,8	105,5
Yunusobod	57 234,1	118,8
Mirzo Ulug'bek	40 841,1	118,9
Mirobod	95 474,6	107,8
Shayxontohur	40 747,0	117,6
Olmazor	27 216,7	111,2
Sergeli	41 809,1	114,0
Yakkasaroy	88 957,0	110,4
Yashnobod	39 252,9	112,5
Yangihayot	12 722,7	109,4
Chilonzor	52 441,0	113,3

2023-yilning yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida moliyaviy xizmatlarning ulushi **31,8 %** ni tashkil etdi. Shu bilan bir qatorda, transport xizmatlari **9,6 %**, savdo xizmatlari **22,1 %**, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari **11,2 %**, ta'lim xizmatlari **4,7 %** darajasida qayd etildi. Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlarning ulushi **2,2 %** darajasida qayd etildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar tarkibi (2023-yil yanvar-sentabr oylarida, % da)



Taqqoslash uchun: 2023-yilning yanvar-sentabr oylarida bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi moliyaviy xizmatlar **31,8 %** ni, me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlili sohasidagi xizmatlar esa **2,2 %** ni tashkil etgan.


Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari

(2023- yil yanvar-sentabr oylari)

	Hajmi, <i>mlrd. so'mda</i>	Ulushi, <i>% da</i>	O'sish sur'ati, <i>% da</i>
Xizmatlar – jami	132 916,7	100,0	116,8
<i>shu jumladan:</i>			
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	14 837,0	11,2	126,5
Moliyaviy xizmatlar	42 327,7	31,8	119,9
Transport xizmatlari	12 784,7	9,6	114,4
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	6 307,6	4,7	108,2
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	6 062,5	4,6	112,5
Savdo xizmatlari	29 362,9	22,1	114,3
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	4 344,0	3,3	115,2
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	6 295,4	4,7	123,3
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	2 770,3	2,1	106,0
Ijara xizmatlari	1 753,2	1,3	106,7
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	581,3	0,4	102,8
Shaxsiy xizmatlar	1 387,2	1,0	103,3
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	2 912,0	2,2	88,5
Boshqa xizmatlar	7498,5	5,6	119,5

Moliyaviy xizmatlar hajmi - moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Moliyaviy xizmatlar (yanvar-sentabr oylarida)



Moliyaviy xizmatlar hajmi **10 513,1** mlrd. so'mga oshib, **42 327,7** mlrd. so'mga yetdi. Umumiy hajmida ushbu xizmatlarning ulushi **31,8 %** ni tashkil etdi. Umumiy moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati **119,9 %** ni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlar tarkibi (yanvar-sentabr oylarida)


2023-yilning yanvar-sentabr oylarida moliyaviy xizmatlar tarkibida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari xizmatlarning ulushi **85,2 %** ni tashkil etdi.

Transport xizmatlarining hajmi amaldagi narxlarda transport turlari bo'yicha transport jarayoniga (yuklarni tushirish va yuklash ishlari, transport-ekspeditorlik xizmatlari, transport xizmati va boshqalar) bevosita bog'liq bo'lgan tashish va boshqa faoliyatdan olingan daromad summasi sifatida aniqlanadi.

2023-yilning 1-oktabr holatiga ko'ra, tashish va saqlash bilan bog'liq faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni **4 022** birlikni yoki ularning umumiy sonining **4,1 %** ini tashkil etdi. Ulardan **3 927** birlik (**4,6 %**) kichik tadbirkorlik subyektlari hisoblanadi.

2023-yil yanvar-sentabr oylarida transport xizmatlari hajmi **12 784,7** mlrd. so'mni tashkil etib, **2022-yil yanvar-sentabr oylariga** nisbatan ushbu xizmat turining o'sish sur'ati **114,4 %** ni tashkil etdi.

Transport xizmatlari (yanvar-sentabr oylarida)




Avtomobil transporti xizmatlariga temir yo'lda tashishdan tashqari, quruqlikdagi yo'lovchi transportining boshqa xizmatlari, avtomobil transportida yuk tashish bo'yicha xizmatlar va ko'chish bo'yicha xizmatlar kiradi.

2023-yilning yanvar-sentabr oylarida avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **6 307,6** mlrd. so'mga yetdi.

Avtomobil transporti xizmatlari

(yanvar-sentabr oylarida)



2019-y. 2020-y. 2021-y. 2022-y. 2023-y.

■ Hajmi, trln. so'm ●⇒ O'sish sur'ati, % da

2022-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan ushbu xizmatlar hajmining **1,2 %** ga oshganligi qayd etildi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **4,7 %**ni tashkil etdi.

Avtomobil transporti xizmatlarining umumiy hajmida yo'lovchilarni tashish xizmatlari ustunlik qiladi – **61,3 %**.


Taqqoslash uchun: 2022-yil yanvar-sentabr oylarida ushbu ko'rsatkich **61,3 %** ni tashkil etgan.

Savdo xizmatlari, shu jumladan, elektron savdo xizmatlari hajmi amaldagi narxlardagi yalpi daromad qiymati, ya'ni sotilgan tovarlarning sotib olish va sotish narxlari orasidagi farqining umumiy qiymati sifatida hisobga olinadi. Agar tovarlar boshqa shaxs manfaatlari uchun oldi-sotdi shartnomalari, komissiyalar yoki agentlik shartnomalari asosida sotilgan taqdirda, xizmatlar qiymati mukofot miqdori sifatida aks ettiriladi.

2023-yilning 1-oktabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchilarning ulushi (**32,0 %** yoki **31 032** birlik) yetakchilik qilmoqda. Ulardan **35,8 %** (**30 621** birlik) kichik tadbirkorlik subyektlari tashkil etadi.

2022-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 2023-yil yanvar-sentabr oylarida savdo xizmatlari hajmi **6 439,6** mlrd. so'mga oshib **29 363,0** mlrd. so'mni tashkil etdi.

2022-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan ushbu turdagi xizmatlar hajmining **1,4 %** ga oshganligi qayd etildi.




Savdo xizmatlarining umumiy hajmida avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlarining ulushi **22,1 %** ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi amaldagi narxlarda mazkur sohada xizmat ko'rsatuvchi korxonalarining daromadlari (sotishdan tushgan tushum miqdori) yig'indisi sifatida aniqlanadi.

2023-yilning 1-oktabr holatiga ko'ra «Axborot va aloqa» faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlar soni **4 693** birlikka yetdi, shundan **4 518** birligi kichik tadbirkorlik subyektlari bo'lib hisoblanadi.

2023-yilning yanvar-sentabr oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari **14 837,0** mlrd. so'mdan iborat bo'lib, **2022-yilning yanvar-sentabriga** nisbatan o'sish sur'ati **126,5** %ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (yanvar-sentabr oylarida)




“Ta’lim” seksiyasi kunduzgi yoki sirtqi shaklda, shuningdek, internet tarmog’i va pochta yozishmalari orqali xususiy yoki davlat tomonidan beriladigan turli darajadagi ta’limni va turli kasblarga o’rgatishni o’z ichiga oladi.

Bunga turli darajadagi muntazam maktab tizimi doirasida turli muassasalar tomonidan beriladigan ta’lim, shuningdek, kattalar uchun ta’lim (tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari), ta’lim sohasida yordamchi faoliyat va shunga o’xshash boshqalar kiradi.

Ta’lim sohasidagi faoliyatni amalga oshirishda masofaviy o’qitish shaklini ham hisobga olgan holda ko’rsatilgan bozor xizmatlari (kontrakt) qiymati aks ettiriladi.

Ta’lim sohasidagi xizmatlar

(yanvar-sentabr oylarida)



▨ Hajmi, trln. so'mda ● O'sish sur'ati, % da

2023-yil yanvar-sentabr oylarida ta’lim sohasidagi xizmatlar hajmi 6 295,4 mlrd. so’mgga yetdi. 2022-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan o’sish sur’ati 123,3 % ni tashkil etdi.


Ta’lim sohasidagi xizmatlarning umumiy hajmida oliy ta’lim sohasidagi xizmatlar ustunlik qilib, 2023-yilning yanvar-sentabr oylarida ularning ulushi 4,7 % ni tashkil etdi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu - sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam va sanitariya xizmatlari uchun ko'rsatiladigan bozor xizmatlarining qiymatidir.

2023-yilning 1-oktabr holatiga ko'ra sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot sohasi xizmatlarida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni **2 087** birlikni tashkil etdi, shundan **1 792** birlikni kichik tadbirkorlik subyektlari tashkil etdi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar

(yanvar-sentabr oylarida)



2023-yil yanvar-sentabr oylarida sog'liqni saqlash xizmatlari hajmi **2 770,3** mlrd. so'mni yoki ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining **2,1 %** ini tashkil etdi.

■ Hajmi, trln. so'mda ● O'sish sur'ati, % da

Tumanlar kesimida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi

(2023-yil yanvar-sentabr oylarida, mlrd. so'mda)

Toshkent shahar.	2 770,3
Uchtepa	197,9
Bektemir	131,7
Yunusobod	290,8
Mirzo Ulug'bek	330,3
Mirobod	155,1
Shayxontohur	276,0
Olmazor	379,6

Sergeli	189,9
Yakkasaroy	281,2
Yashnobod	201,1
Yangihayot	39,1
Chilonzor	297,6

Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar - oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.


Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

2023- yilning 1-oktabr holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni **5 409** birlikni tashkil etgan bo'lsa, ulardan **5 345** birlik kichik biznes subyektlaridir.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

(yanvar-sentabr oylarida)

2022-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan 2023-yil yanvar-sentabr oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning hajmi 1,7 mlrd. so'mga oshib, 6 062,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Legend: ■ Hajmi, mlrd. so'mda ● O'sish sur'ati, % da

Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar

78,1 %

Yashash bo'yicha xizmatlar


21,9 %

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi

(2023-yil yanvar-sentabr oylarida)


Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatishda ko'chmas mulk bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha xizmatlar qiymati, korxonaning shaxsiy, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruvidagi, shuningdek, ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlari aks ettiriladi.

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (yanvar-sentabr oylarida)



Tumanlar kesimida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar hajmi

(2023-yil yanvar-sentabr oylarida, mlrd. so'mda)



¹⁾ tumanlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda


Ijara xizmatlari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi mashinalar va asbob-uskunalarni operatorlarsiz ijaraga berish, maishiy jihozlar va shaxsiy ehtiyoj buyumlarini ijaraga berishdan olingan daromad miqdori sifatida aniqlanadi.

Ijara xizmatlari

(yanvar-sentabr oylarida)

2022-yil yanvar-sentabr

oylariga nisbatan ijara xizmatlari hajmi 263,3 mlrd. so'mga oshib, 2023-yil yanvar-sentabr oylarida 1 753,2 mlrd. so'mni tashkil etdi. Xizmatlarning umumiy hajmida ularning ulushi 1,3 % ni tashkil etdi.



Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida **2023-yil yanvar-sentabr oylarida** avtomobillar va yengil avtotransport vositalarini ijaraga berish xizmatlarining ulushi **59,3 %** ni tashkil etdi. Xizmatlar sohasining rivojlanishi aholining to'lov qobiliyati va imtiyozlarining oshishiga, shuningdek, iste'molchilarning, ayniqsa AKTdan foydalangan holda zamonaviy xizmat turlariga bo'lgan talabini qondira oladigan kichik biznesning rivojlanishiga bog'liqdir.



Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi
Tel.: 71-203-88-15 (25)

Moliyaviy xizmatlar hajmi moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Transport xizmatlarining hajmi amaldagi narxlarda transport turlari bo'yicha transport jarayoniga (yuklarni tushirish va yuklash ishlari, transport-ekspeditorlik xizmatlari, transport xizmati va boshqalar) bevosita bog'liq bo'lgan tashish va boshqa faoliyatdan olingan daromad summasi sifatida aniqlanadi.

Avtomobil transporti xizmatlariga temir yo'lda tashishdan tashqari, quruqlikdagi yo'lovchi transportining boshqa xizmatlari, avtomobil transportida yuk tashish bo'yicha xizmatlar va ko'chish bo'yicha xizmatlar kiradi.

Savdo xizmatlari, shu jumladan, elektron savdo xizmatlari hajmi amaldagi narxlardagi yalpi daromad qiymati, ya'ni sotilgan tovarlarning sotib olish va sotish narxlari orasidagi farqining umumiy qiymati sifatida hisobga olinadi. Agar tovarlar boshqa shaxs manfaatlari uchun oldi-sotdi shartnomalari, komissiyalar yoki agentlik shartnomalari asosida sotilgan taqdirda, xizmatlar qiymati mukofot miqdori sifatida aks ettiriladi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi amaldagi narxlarda mazkur sohada xizmat ko'rsatuvchi korxonalarining daromadlari (sotishdan tushgan tushum miqdori) yig'indisi sifatida aniqlanadi.

Telekommunikatsiya xizmatlari bu – ovozli, matnli, ovozli yoki video ma'lumotlarni uzatish kabi telekommunikatsiya va boshqa tegishli xizmatlarni taqdim etish.

“Ta’lim” seksiyasi kunduzgi yoki sirtqi shaklda, shuningdek, Internet tarmog'i va pochta yozishmalari orqali xususiy yoki davlat tomonidan beriladigan turli darajadagi ta'limni va turli kasblarga o'rgatishni o'z ichiga oladi.

Ta'lim sohasidagi faoliyatni amalga oshirishda masofaviy o'qitish shaklini ham hisobga olgan holda ko'rsatilgan bozor xizmatlari (kontrakt) qiymati aks ettiriladi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam va sanitariya xizmatlari uchun ko'rsatiladigan bozor xizmatlarining qiymatidir.

Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatishda ko'chmas mulk bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha xizmatlar qiymati, korxonaning shaxsiy, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruvidagi, shuningdek, ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlari aks ettiriladi.

Ijara xizmatlari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi mashinalar va asbob-uskunalarni operatorlarsiz ijaraga berish, maishiy jihozlar va shaxsiy ehtiyoj buyumlarini ijaraga berishdan olingan daromad miqdori sifatida aniqlanadi.

Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi bu – kompyuterlar va periferik uskunalarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish kommunikatsiya uskunalari (fakslar, radiostansiyalar)ni ta'mirlash, maishiy elektronika (radiopriyomniklar va televizorlar), uy va bog' uchun uskunalar (gazon o'ruvchi va havo (dam) beruvchi mashina), poyabzal va charm buyumlar, mebel va uy jihozlari, kiyim va aksessuarlar, sport anjomlari, musiqa asboblari va boshqa shaxsiy buyumlar va maishiy tovarlarni ta'mirlashdan tushgan tushum miqdoridir.